Hikoyaning so‘nggi jumlasi esa kishini tabiatga beparvo bo‘lmaslikka, jonzotlarga mehr ko‘rsatishga chorlaydigandek. Mehr, jasorat, insonparvarlik kabi tuyg‘ularning inson qalbida qanchalik jo‘sh urayotganligini o‘ylash va anglash uchun turtki vazifasini bajargan. Bulardan xulosa olish esa o‘quvchining o‘ziga havola qilingan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recomendations). Halima Ahmedovaning “Katta qush” hikoyasi yosh kitobxonlarni ezgulikka, mehr-shafqatga va tabiatni asrashga undaydigan hikoyalar qatoriga kiradi. Hikoyada ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kunda ham adabiyotshunoslar va o‘quvchilar tomonidan qizg‘in mushohadalarga sabab bo‘lib kelmoqda. Hikoyani o‘qigan kitobxon har bir tirik mavjudotning yashashga haqqi borligini his qiladi. Muallif o‘quvchini bevosita nasihat qilish yo‘li bilan emas, balki qahramon kechinmalari orqali tarbiyalaydi. Bu esa asarning badiiy qimmatini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, Halima Ahmadovaning «Katta qush» hikoyasi o‘zbek adabiyotining e’tiborga molik namunalaridan biridir. Asarda qizaloq va yarador qush o‘rtasidagi samimiy munosabat orqali insonparvarlik, rahm-shafqat, tabiatga mehr va mas’uliyat kabi umuminsoniy g‘oyalar yoritilgan.

Hikoyada qush obrazi nafaqat voqealar markazidagi qahramon sifatida, balki erkinlik, hayotga intilish, sog‘inch va tabiiy muhit bilan uyg‘unlik ramzi sifatida ham talqin qilinadi. Qahramonning ichki kechinmalari va ruhiy holati orqali inson qalbidagi ezgulik, mehr va hamdardlik tuyg‘ularining shakllanish jarayoni ochib beriladi.

Hikoyaning fojiaviy yakuni esa inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar haqida jiddiy mushohada yuritishga undaydi. Shunday qilib, “Katta qush” hikoyasi nafaqat badiiy jihatdan mukammal asar, balki yosh avlodni ma’naviy tarbiyalash, ularda ezgulik va mehr-muruvvat tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim adabiy manba sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Karim B. Ruhiyat alifbosi. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
(2). Karimov H. Kechagi o‘zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiyasi (70–80-yillar). Toshkent, “Yangi nashr”, 2018.
(3). Ahmedova H. Shudringli parchalar. Toshkent, “Adabiyot”, 2024.
(4). Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2016, 288-bet.
(5). Umurov H. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, “Sharq”, 2002, 264-bet.
(6). ziyoNet kutubxonasi ziyouz.uz

Ashurov Baxshillo Sharopovich (NavDU “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti, f.f.n.)

SHOIR IJODINING RANG-BARANGLIGI

Annotatsiya.*Maqolada XX asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan Shavkat Rahmon ijodining ba’zi qirralari haqida mulohazalar yuritilgan. Bunda shoirning zamondoshlari, tadqiqotchilar va adabiyotshunos olimlarning fikrlariga tayanilgan.*

Kalit so‘zlar: *mustaqillik, ma’naviyat, shoir, manzara, ilhom, Vatan, oddiy, millat, isyon, lola, qudrat, haqiqat, mo‘jiza.*

РАЗНООБРАЗИЕ ТВОРЧЕСТВА ПОЭТА

Аннотация. *В статье даны размышления о некоторых гранях творчества Шавката Рахмона, творившего во второй половине XX века. Автор опирается на мнения современников поэта, исследователей и ученых – литературоведов.*

Ключевые слова: *независимость, духовность, поэт, пейзаж, вдохновение, Родина, простой, национальность, бунт, тюльпан, могущество, правдивость, чудо.*

THE DIVERSITY OF THE POET’S CREATIVE WORK

Annotation. *The hereby article presents some thoughts about the literary works of Sh.Rahmon, created at the end of 20th century. While writing the article we were guided by the opinions and considerations of the poet’s contemporaries, researchers and literary men.*

Keywords: *independence, spirituality, poet, landscape, inspiration, Homeland, plain, nationality, revolt, tulip, power, truthfulness, miracle.*

Kirish. “Shoir” so‘zi “vijdon” atamasining sinonimiga o‘xshaydi. Shu bois vijdonga xiyonat qilgan shoir yaxshi she’r yoza olmaydi. Yaxshi shoirlar hamisha vijdon ko‘zgusiga tik boqib yashaydilar. Shoir umri yillar bilan o‘lchanmaydi, balki u yaratgan asarlar va ularning umrboqiyligi bilan o‘lchanadi. XX asrning ikkinchi yarmida adabiyotimiz tarixida yorqin iz qoldirgan iste’dodli shoirlardan biri Shavkat Rahmondir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shoir ijodi, shaxsiyati, asarlarining teran mohiyatini anglashda "Shavkat Rahmonni xotirlab" kitobini mutolaa qilish lozim. Bu yodnoma-xotiralarni to'plab, nashrga tayyorlagan shoirning qishloqdoshi, yaqin maslahatgo'yi, ustozi, bolalarning sevimli shoiri Tursunboy Adashboyev ulkan savob ishni amalga oshirgan. Uning kitobdan joy olgan "Tog'larga termulgan xayol" maqolasida Shavkat Rahmon hayoti va ijodiga oid muhim voqealar, shoirning O'sh, Jalolobod, Bishkek bilan bog'liq hayotining turli manzaralari, uning shoir sifatida shakllanishiga turtki bergan omillar qalamga olingan. Xususan, Shavkat Rahmonning Moskvada o'qigan yillarida uning ulkan iste'dod egasi ekanligini his etib, unga har tomonlama yordam ko'rsatilganligi haqidagi ma'lumotlar kitobxonda katta qiziqish uyg'otadi. Mana, shunday xotiralardan biri:

"Talaba shoirni imkon qadar moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni o'zaro kelishib olganimiz uchun uning mashqlariga kengroq o'rin berardik. Bundan tashqari, "Bizning kalendar" ruknida taniqli shoir va adiblarning 70–100 yillik yubileylariga bag'ishlangan turkum maqolalarni uning nomidan yozib, qalam haqini esa Moskvaning Dobrolyubov dahasiga yo'llardik. ...Shavkat O'shga qachon kelmasin, uyimizga qo'ng'iroq qilib, hol-ahvol so'rashga ko'nikib qolgandi. Dam olish kunlari ham gazeta xodimlarining paxta tergani, pichan o'rgani chiqishi odat tusiga aylanganligi sababli u biz bilan yonma-yon ishlab, suhbatlashishdan sira erinmasdi" (1).

Shuningdek, shoir bilan yonma-yon yurgan, uning har bir she'ri tug'ilishiga guvoh bo'lgan, uning ilhomini junbushga keltirgan lahzalarda dildosh bo'lgan safdoshlari, she'rlaridagi she'rxonni o'ziga ohanrabodek tortadigan quyma satrlarni chuqur tahlil etgan adabiyotshunos olimlar xotiralari berilgan. Bu xotiralarni o'qigan kishi shoirni o'z qalbida qaytadan kashf etadi, uning badiiy iste'dodi qudratiga, yurak qo'rida pishib, shoir qalamidan to'kilgan so'zlarning sehriga qoyil qoladi. Professor Qozoqboy Yo'ldosh shunday yozadi:

"Shavkat Rahmonni shoir qilgan ham, uni adoqsiz g'ambodalik quchog'iga itqitgan ham o'z millatiga cheksiz muhabbat tuyg'usi edi. Shoirning tuyg'ulari-erkakcha. Uning muhabbati chuchmal navozishlardan yiroq. To'g'ri, u millatini suyadi, lekin uysiz, ko'r-ko'rona, hisobsiz, taftishsiz emas. U millatning xor bo'lishi ham, yuksalishi ham uning o'z qo'lida ekanligini anglaydi va shoirning bu sezimi, qanoati deyarli barcha she'rlarida aks etadi" (2).

Tahlil va natijalar. Shoir umr bo'yi Vatanni kuyladi, uning qadr-qimmati buyuk ekanligini uqtirishga harakat qildi. Haykallar jam bo'lgan xiyobonda Navoiy alohida bir salobat to'kib turganligida Vatan timsolini ko'radi, bu bilan faxrlanadi, g'ururi qalbidan toshganligini yashirmaydi yoki "Qasam" sarlavhali she'rida Vatanni ulug'lash yana ham o'ziga xos yo'sinda ifodalangan. "Shavkat Rahmon degan shoir yana o'tadimi?" deb savol bergan shoir Vatanning abadiy qolishi, uning bag'rida faqat rost gaplarni gapirish, kelajakka g'urur bilan nigoh tashlay olish lozimligini ta'kidlaydi. Chunki yolg'onlar Vatanning ne-ne mard o'g'lonlari boshini xam qildi, zaharday bo'lsa ham, qilichday keskir rost so'zlarga muhtojdir Vatan. Shunday o'ylar bilan sarmast shoir zamondoshlarga hayqiradi, ularni faqat rost so'zlashga da'vat etadi:

Endi ishlash kerak bu kengliklarda,
tokim so'ylamasin yolg'onni hech kim,
tokim buyuk tog'lar saltanatida
egilgan boshlarni
qilichlar kessin! (3)

Bu chinakam isyonkorlik. Shavkat Rahmon ijodiga xos bunday isyonkorlik uning nomini abadiyatga burkadi.

Shoir haqidagi har bir xotira ijodining ma'lum bir qirrasini ochib bergan. Shavkat Rahmonning shaxsiyati nihoyatda oddiyligi, soddaligi, tortinchoqligi, mudom xayoli yangi tug'ilajak she'r ilhomi bilan bandligi, qalbi nekbin orzu-umidlarga to'laligi xotiralarda samimiy ifodasini topgan. "Shavkat Rahmonni taniganlar ko'p, ammo bilganlar oz. Uni o'qiganlar ko'p, ammo uqqanlar oz. Adabiyotga uncha-muncha bosh suqib yurgan bizlar ham uni to'la tushunganimizcha yo'q. Uni to'laligicha, borligicha anglab yetish balki bizdan tafakkuri necha chandon o'tkirroq, kelgusi avlodlarimizga nasib etsa ajab emas" (4). Yaqin qarindoshi, birgalikda ishlagan safdoshi Abdug'ani G'afurovning bu ta'rifida, aslo, mubolag'a yo'q. Yirik adabiyotshunos olimlar, ustoz shoirlar va uning o'z salaflari ham she'rlarida nihoyatda teran ma'no ifodalanishi, ularda shoirning qaynoq qalbi, shoirona ruhining isyonkorligi hayratlanarli tarzda namoyon bo'lishini e'tirof etishadi. Xuddi shu xotira maqolada taniqli adabiyotshunos olim Umarali Normatovning fikrlari buni yana bir bor tasdiqlaydi. "Shavkat Rahmonning ilk she'rlaridan tortib so'nggi misralarigacha qalbi, tabiati, butun borlig'i vaziyatga qarab tovlanavermaydigan mustahkam e'tiqodi, sodda va mag'rur, kurashchan va jasur siymosi mana men deb turibdi" (5), deydi atoqli olim.

Uning she'rlarini mutolaa qilarkansiz, she'riy olamning rang-barangligi, so'zning yaratuvchi kuchi, vayron etuvchi qudrati, badiiy tafakkurning jozibadorligi maftun etadi, hayratlarga chulg'aydi, shuuringizni osmon qadar yuksaltiradi. Bu sehr og'ushidan chiqib ketolmaysiz. Ularni qayta-qayta o'qishga, misralar qatidagi teran mazmun-mohiyatni anglab yetishga intilasiz. Ularda shoirning shaxsi, adabiyot oldidagi mas'uliyatni qay darajada his etishi yorqinroq aks etib turishi yuragingizda aks sado berib, bu she'riyatga sizni mangu oshno qiladi. "Savol" she'rida "...isyonlarga, g'azab, nafratga, og'riqlarga to'ladir ichim...", deya iztirob chekkan shoir "Ko'zlarimdan ko'ra hayotni yelkalarim ko'ribdi ko'proq", degan xulosa chiqaradi. "Nazarimda, shoir inson umriga, uning og'riqlariga to'la qismatiga aloqador yaxlit bir falsafiy ko'lamdor savol obrazini chizishga intilgan-u, lekin maqsadiga unchalik erisholmagandek" (6), deydi Ulug'bek Hamdam. Ammo, bizningcha, Shavkat Rahmon bu va boshqa qator she'rlarida savolning mukammal poetik obrazini yaratgan. Uning har bir she'ridan har bir she'rxon o'zicha xulosa chiqaradi. Shoir tasvirlayotgan Savol uning yuragiga behad og'riqlar paydo qiladi, uni shoir qilgan, o'zi istagan yuksak maqsadlar yo'liga g'ov bo'layotgan iztirob, anduh, o'rtanishlarning sababchisi bo'ladi. "Turkiylar" she'rida ham uni buyuk millatning taqdiri iztirobga soladi, fojialar, yo'qotishlar, yov makridan kesilgan boshlar, yovga ters qarash oqibatida millatning sha'ni, shavkati toptalishidan qalbi junbushga keladi. Millatning millat bo'lib qolishi uchun yovga ters qaramaslik zarurligini uqtirmoqchi bo'ladi. Shundan savollar qalashib keladi:

Bormi er yigitlar,
bormi er qizlar,
bormi gul bag'ringda jo'mard nolalar,
bormi bul tuproqda, o'zligin izlab,
osmonga, falakka yetgan bolalar? (3)

Bunga qat'iy, mardona, sharqona javob lozim. Bu javobni shoirning o'zi beradi. Bu shunday javobki, yuraklar titratib ketadi, mudroq ruhlar uyg'onadi, ko'ngilning qat-qatida isyonkor hislar g'imirlab qoladi:

Bor bo'lsa,
alarga yetkazib qo'ying,
bir boshga bir o'lim demagan ermas,
shahidlar o'lmaydi.
Bir qarab to'ying:
Yovga ters qaragan musulmon emas!
Yovga ters qaragan musulmon emas!
Yovga ters qaragan musulmon emas!
Yovga ters qaragan musulmon emas!
Yovga ters qaragan musulmon emas! (3)

Bu misralarga izoh ham, tahlil ham hojat emas. Bu chinakam shoirning qalb isyonidir. Professor Qozoqboy Yo'ldosh mulohazalariga quloq solsak, Shavkat Rahmonning yurt, Vatan, millat taqdiri uchun bunchalik kuyib-yonishining sabablarini chuqurroq idrok eta olamiz: "Shavkat vataniy tuyg'ularini ayab-avaylab bildirmaydi. Chunki u xolis kuzatuvchi yoki sermulozamat mezbon emas. U – yurt farzandi va uning egasi! Chin farzand sifatida arzon xayrixohlik, chuchmal muhabbat ulashuvni emas, ruhni uyg'otuvchi, hissiyotni sergaklantiruvchi qilichday keskir, qamchiday botguvchi, qalampirday achchiq haqiqatning zalvori bilan Vatan vujudidagi va vatandosh ruhiyatidagi zanglarni ko'chirmoq istaydi" (2).

Shavkat Rahmon she'riyatini tushunish mas'uliyati haqida, bu ijodni tushunish lazzati, buyuk iste'dod abadiyligiga har qanday davrning turfa shamollari daxl etolmasligi haqida adabiyotimizning yana bir iste'dodli, hassos shoiri sifatida e'tirof etilayotgan Vafo Fayzulloh mulohazalari ancha aniqlik kiritgan. Shoirning ilk to'plami – "Rangin lahzalar"da ko'rinish bergan iste'dod kurtaklarining keyingi to'plamlarida to'lishib borganligi, she'rdan she'rga obrazlar, poetik tashbehlar quyuqlashib borgani va uning muxlislari ortganligi ta'kidlanadi. Abdulla Oripovning bahor haqida tashbehlarga boy takrorlanmas she'rlari bilan Shavkat Rahmon ijodida bahor tasvirini taqqoslaydi. Har ikki buyuk ijodkorda bahor o'ziga xos badiiy tajassumini topgan. "Oq sukunat portlar yobonda" misralari qatidagi mazmunni anglash uchun kishi kuchli tasavvur qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Shavkat Rahmon tilsiz narsalarni so'ylatadi, ko'rinishsiz, faqat xayolda jonlantirish mumkin bo'lgan mo'jizalarga jon bag'ishlaydi. Bahor haqida uning har bir tasviri yangi, taassurotli. Shuning uchun "gilos gulin kiygan ko'chada oqib borar qizlar kulgusi" tasvirida ko'z oldingizda barq urib yotgan bahor, qir-u adirlardagi lolalar xandasi namoyon bo'ladi. Vafo Fayzulloh bahorni ana shunday bor go'zalligi bilan tasvirlashda Shavkat Rahmonning iste'dodi yuksak bo'lganligini qayd etadi.

Xulosa va takliflar. Shoir borki, Vatan haqida kuylaydi, Vatanga eng yaxshi ta'riflar topishga intiladi. Shavkat Rahmon bu mavzuda qalam tebratganida ham butunlay boshqacha ijodkor sifatida ko'rinadi.

“Vatan haqidagi ko‘p hayqiriqlar g‘ashni keltiradi, Vatan sha’niga yuqqan g‘ubordek noxush taassurot uyg‘otadi. “Aqlli”lik qilib bundan saqlanishga urinib, Vatanni yozishdan, kuylashdan, o‘ylashdan o‘zimizni chetga olamiz. Chunki kulguga qolish, qanchalik ojizligimiz oshkor bo‘lishi yaxshimas-da. Vatanni, vatan yaralarini anglab yozish, juda ham qiyin savdo. Bunaqa kuychilikni Xudo taqdir qilmagan bo‘lsa, u muqaddaslikdan lom-mim demagan tuzuk. Ne baxtki, Shavkat Rahmonda kam bo‘lsayam chin vatanni yonib o‘lan qilgan, yodlasak yordamga keladigan she’r-u satrlar bor” (6). Ha, shoirning Vatan haqidagi har bir she’ri chaqmoqday shuuringizni yoritadi, Vatanni anglab yetish mas’uliyatini juda jo‘n tushunganligingizdan hijolat tortasiz, uni Shavkat Rahmonday yuragingizda kashf etmoq istaysiz. Mana bu misralarda shunday qudrat bor:

...Sendan-da ulug‘roq narsa yo‘qligin
sochim oqarganda angladim, Vatan!

Yoki:

Naqadar kechikib angladim seni,
chaqinlar yo‘q qilsa meni daf’atan,
ayt, qanday chidayman bunday xo‘rlikka,
ayt, qandoq yotaman qa’ringda, Vatan!

XX asr so‘ngida favqulodda mo‘jizaviy iste’dod sifatida porlagan Shavkat Rahmon ijodi “keyingi asr so‘z san’ati uchun u o‘ziga xos ko‘prik” (Zuhriddin Isomiddinov) (7) ekanligi haqiqat. Bu haqiqatni anglashda shoir haqidagi xotiralar, yodnomalar, yirik adabiyotshunos olimlarning e’tirofi yordam beradi. Bunday shoirlar jisman yoq bo‘lsalar-da, ma’nan hamisha safimizda. Ularning ovozi, nigohi bizni hamisha halolikka chorlab,mard yashashga undab turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Adashboyev T. Shavkat Rahmonni xotirlab. T., “Sharq”, 2012, 21–22-betlar.
(2). Yo‘ldoshev Q. Shavkat Rahmonni xotirlab. T., “Sharq”, 2012, 9-bet.
(3). Rahmon Sh. Saylanma. T., “Sharq”, 1997, 203-bet.
(4). G‘afurov A. Shavkat Rahmonni xotirlab. T., “Sharq”, 2012, 55-bet.
(5). Ulug‘bek Hamdam. Shoir–“tuzalmas” haqiqatparast, “Shavkat Rahmonni xotirlab” (E’tirofnomalar, taqriz-tahlil, suhbatlar va bag‘ishlov she’rlari). T., “Sharq”, 2012, 119–120-betlar.
(6).Vafo Fayzulloh. “Sahar turdim, quyoshni kutdim”. “Shavkat Rahmonni xotirlab” (E’tirofnomalar, taqriz-tahlil, suhbatlar va bag‘ishlov she’rlari). T., “Sharq”, 2012, 141-bet.
(7). Zuhriddin Isomiddinov. Uch uchrashuv. “Shavkat Rahmonni xotirlab” (E’tirofnomalar, taqriz-tahlil, suhbatlar va bag‘ishlov she’rlari). T., “Sharq”, 2012, 63-bet.

Isakjanova Shahodat (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);
shahodatmuhammedovna@gmail.com)

ABDULLA ORIPOVNING “HAJ DAFTARI – HIKMAT SADOLARI” TURKUMIDA AGIOGRAFIK OBRAZLARNING BADIIY TALQINI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mustaqillik davri o‘zbek she’riyatida agiografik obrazlarning badiiy talqini Abdulla Oripovning “Haj daftari – Hikmat sadolari” turkumi misolida tadqiq etiladi. Shoir ijodida payg‘ambarlar va sahobalar obrazlarining an’anaviy diniy-tarixiy manbalar bilan aloqadorligi, ularning zamonaviy poetik tafakkur doirasida qayta talqin qilinishi tahlil qilinadi. “Hazrati Odam”, “Payg‘ambar”, “Jabroil”, “Jon achchig‘i” va “Bilol Habash” she’rlari misolida agiografik obrazlarning badiiy-falsafiy funksiyalari ochib beriladi. Shuningdek, an’anaviy rivoyatlarning lirik-poetik shaklga ko‘chirilishi, diniy mazmunning zamonaviy insoniy-falsafiy mushohadalar bilan uyg‘unlashuvi hamda agiografik obrazlarning yangi poetik funksional imkoniyatlari ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *mustaqillik davri she’riyati, agiografik obraz, Abdulla Oripov, “Haj daftari”, payg‘ambar obrazi, Muhammad alayhissalom, Iso alayhissalom, Bilol Habash, diniy-tarixiy an’ana, poetik talqin, badiiy-falsafiy tafakkur, agiografik sujet.*

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ АГИОГРАФИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ НА МАТЕРИАЛЕ ЦИКЛА АБДУЛЛЫ АРИПОВА “HAJ DAFTARI – HIKMAT SADOLARI”

Аннотация. *В статье исследуется художественная интерпретация агиографических образов в узбекской поэзии периода независимости на материале цикла Абдуллы Арипова “Haj daftari – Hikmat sadolari”. Анализируется связь образов пророков и сподвижников в творчестве поэта с*